Kimyo sanoati: eksport va investitsiyalarda barqaror o‘sish

// 22 April 2026 yil
https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/kimyo-sanoati-eksport-va-investitsiyalarda-barqaror-o-sish



Joriy yilning yanvar–mart oylari yakunlariga ko‘ra, kimyo sanoatida eksport hajmlari va investitsiya faolligi izchil o‘sishni namoyon etdi. Hisobot davrida sohada amalga oshirilgan ishlar mamlakat iqtisodiyotida kimyo tarmog‘ining strategik ahamiyati ortib borayotganini yana bir bor tasdiqlaydi.

Xususan, uch oy davomida jami 57 ta davlatga 27 turdagi kimyo mahsulotlari eksport qilinib, umumiy qiymat 146,5 mln dollarni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich belgilangan rejaga nisbatan 109 foizga bajarilib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 104 foiz o‘sishga erishildi. Eksport tarkibida mineral o‘g‘itlar asosiy ulushni egallab, 74,8 mln dollarlik mahsulot xorijga yetkazib berildi. Ular qatoriga karbamid, ammiakli selitra, sulfat ammoniy, xlorli va sulfat kaliy, superfosfat hamda NPK o‘g‘itlari kiradi. Shuningdek, 71,7 mln dollarlik 20 turdan ortiq boshqa kimyo mahsulotlari ham tashqi bozorlarga chiqarildi.

Mahsulotlar geografiyasi tobora kengayib, qo‘shni davlatlar bilan bir qatorda Yevropa, Yaqin Sharq, Janubi-

Sharqiy va Sharqiy Osiyo, shuningdek Janubiy Amerika mamlakatlari bozorlarini ham qamrab oldi. Investitsiya yo‘nalishida ham ijobiy natijalar qayd etildi. Yanvar–mart oylarida jami 139,8 mln dollar miqdorida xorijiy investitsiyalar o‘zlashtirilib, reja 105 foizga bajarildi. Mazkur mablag‘lar doirasida qator yirik loyihalar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, “Navoiyazot” AJ negizida quvvati 75 MVt bo‘lgan elektr energiyasini saqlash tizimi barpo etilmoqda. Shuningdek, “Chirchiq” va “Jizzax” texnoparklarida yangi ishlab chiqarish quvvatlari yaratish, “BRZ” MCHJ XKda zamonaviy shinalar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish, “JV Continaz” MCHJ tomonidan quruq sian tuzlari ishlab chiqarishni tashkil etish loyihalari amalga oshirilmoqda.

Mazkur ko‘rsatkichlar kimyo sanoatida diversifikatsiya, qo‘shilgan qiymat zanjirini kengaytirish va eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar samarasi hisoblanadi.